

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-6/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2023**

**МУНДАРИЖА**  
**ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<b>Abdullayeva D.A.</b> Studying rhetorical sentence in terms of its semantic structure and categories	6
<b>Akhmedova S.H., Shokulova L.B.</b> Characteristic features of written discourse in the english language	8
<b>Alimova S.S.</b> Ingliz tilida otlarning kelishik grammatik kategoriyasi	10
<b>Allaberdiev A.</b> Buxoro o'g'uz shevalarida unli tovushlarning fonetik o'zgarishi	12
<b>Amanlikova N.R.</b> O'zbek va rus tillarida grammatik tizimining umumiy xususiyatlari tahlili	15
<b>Arzieva B.A.</b> Lexical units of funeral and mourning rites in the karakalpak and english languages	19
<b>Avlaeva S.B.</b> The essential role of neologisms in COVID-19 to enlarge vocabulary	21
<b>Axmedova S.H., Mizrobova V.B.</b> "Diskurs" terminining nazariy va amaliy xarakteristikasi	23
<b>Azimova M.P.</b> Theory of "concept", "conceptual semantics" and "linguistic semantics" in modern cognitive linguistics	26
<b>Azizova N.O.</b> The purification of violence and the translation of fairy tales	30
<b>Baxranova D.U.</b> Koreys tilida frazeologizmlarning tarkibiy jihatdan tuzilishi	32
<b>Bazarova Sh.Sh.</b> Feministik syujetda "ayol" konseptining qiyosi	35
<b>Boboqulova G.Sh.</b> Tohir Malikning "Shaytanat" asaridagi madaniyat xususiyatlari	39
<b>Borasulova D.D.</b> "Firdavs ul-iqbol" asarining o'rganilishi	41
<b>Bozorova R.Sh.</b> Gidropoetonimlarni qiyosiy tadqiq qilish	43
<b>Cho'liyeva N.A'.</b> Badiiy zamon va makon muammosining o'rganilishiga doir tadqiqotlar tizimi	46
<b>Djumayeva N.D., Abduraxmonova M.</b> Ingliz va o'zbek xalqlari diniy qadriyatlarini xususida	48
<b>Djumayeva N.D., Murodova M.</b> Qirol Artur haqidagi afsonalarda ingliz madaniyatining ifodalanishi	50
<b>Elmuratova U.M.</b> Koreys va o'zbek tillarida sifat so'z turkumining sintaktik vazifalari	53
<b>Erbutayeva Sh.U.</b> "O'zbek tilining izohli lug'ati" tarkibidagi ba'zi funksional ko'makchi vazifasida qo'llanilgan so'zlar tahlili	55
<b>Eshmuratov Sh.X.</b> Frazeologizmlar xalq dunyoqarashining timsoli sifatida	57
<b>Fatullayeva K.R.</b> Tibbiy birliklarning leksik-semantik munosabatlari	59
<b>Ganiyeva Sh.A.</b> Frazeologik kontaminatsiya masalalari	62
<b>Ibragimov X.</b> Nutq va xalq tili munosabati	64
<b>Irgasheva U.A.</b> Zamonaviy tilshunoslik doirasidagi baholash toifalariga yondashuvlar	66
<b>Iskandarova A.R.</b> O'zbek va rus tillarining so'z shakllanishining umumiy xususiyatlari	69
<b>Haydarov A.A., Aminova Z.R.</b> Ingliz va o'zbek tillarda leksemalarning konnotativ ma'nolari	71
<b>Jarkinova T.A.</b> Yusuf Shomansurning so'z qo'llash mahorati	74
<b>Jumaniyozov A.</b> Beruniy va sanskrit tili	77
<b>Kabilova S.A.</b> O'zbek va ingliz tillarida evfemizmlarning manipulyatsiya usullari va vositalari	80
<b>Kasimova R.R., Alimova V.B.</b> Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida badiiyat, uning yuzaga kelish omillari va mazmun-mohiyati	83
<b>Khadjimuratova U.</b> Functioning of diplomatic vocabulary in texts in english and russian business writing	87
<b>Khamdamova D.</b> The features of english pronunciation	90
<b>Komiljonova K.G'.</b> Erkin Vohidov she'riyatida tanosib san'atining qo'llanishi	91
<b>Madaliev D.B.</b> Problems in translation accounting-auditing terms and analyzing terms	93
<b>Mamatov R.</b> Nemis adibi Gerta Myullerning poetik asarlarini shakllanishida ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlari	96

N.G.Izmaylov, A.A.Gadjiyev esa badiiy zamon va makon muammosini ijodkor uslubi bilan bog'liq holda o'rganishgan. K.Sh.Nurlanova, S.V.Ananyeva o'z tadqiqotlarida vaqt-makon kategoriyasi bilan xotira kontsepsiyasining ajralmas ekanligini, ular badiiy matni idrok etishdagi bir-biri bilan bog'liqligini qayd etadi.

Badiiy matni qabul qilish muammosi bilan bog'liq holda G. M. Muchnik xronotop toifasini o'rganadi. U o'z ishida adabiyot asarini talqin qilish jarayonida vaqt-makonning ahamiyatini ta'kidlaydi

Yuqoridagi tadqiqotlar jahon adabiyotshunosligida badiiy zamon va makon haqidagi nazariy qarashlarning kengaygani va tizimlashganini ko'rsatadi. Ulardagi muayyan yondashuvlar badiiy asar va ijodkor olamini teranroq anglatishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 352 b.
2. Локк Д. Избранные философские произведения: В 2-х томах. Том 1. – М.:Соцэҗгиз, 1960. – 734 с.
3. Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси (XVII-XX асрлар). – Тошкент: Шарк, 2002. – 336 б.
4. Фаликова Н.Э. Хронотоп как категория исторической поэтики // В кн.: Проблемы исторической поэтики. – Петрозаводск: ПГУ, 1992. – С. 45-58.
5. Frank J. Spatial form: An answer to critics // Crit. inquiry. - Chicago, 1977 - N 4. – 307 p.
6. Современное зарубежное литературоведение/Энциклопедический справочник. –М.:Интрада, 1999. – 319 с.
7. Лотман Ю.М. Проблема художественного пространства в прозе Гоголя // Труды по русской и славянской филологии XI. Литературоведение. Вып. 209. – Тарту, 1968. – С. 5-51
8. Нехлюдов С.Ю. К вопросу о связи пространственно-временных отношений с сюжетной структурой в русской бытине // Тезисы докладов во второй летней школе по вторичным моделирующим системам. – Тарту, 1966. – С. 42-43.
9. Вахтин М. Романда zamon va xronotop shakllari. – Т: Akademiashr, 2015. – 288 b.
10. Слепухов Г.Н. Художественное пространство и время как объект философско-эстетического анализа. Автореф. дис. канд. – М., 1979. – 21 с.
11. Martin Heidegger'in felsefesi. <https://www.felsefe.gen.tr>
12. Шапир М.И. «Versus» vs «prosa»: пространство-время поэтического текста // Philologica. – 1995. – Т. 2. – № 3/4. – С. 7-47.

UO'K 808.5

### INGLIZ VA O'ZBEK XALQLARI DINIY QADRIYATLARI XUSUSIDA

*N.D.Djumayeva, katta o'qituvchi, PhD, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*  
*M.Abduraxmonova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek xalqlarining diniy va milliy qadriyatlarini namoyish etadigan lisoniy birliklar fikr yuritilgan. Shuningdek har ikkala tilga xos diniy jihatlari ko'rsatib o'tilgan, va har ikkala tilga xos misollar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Lison, aforizm, kommunikatsiya, qadriyat, angel, satan, pragmatika, pragmalingvistika.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются языковые единицы, словосочетания и афоризмы, демонстрирующие религиозные и национальные ценности английского и узбекского народов. Также показаны религиозные аспекты, характерные для обоих языков, и приведены примеры, характерные для обоих языков.

**Ключевые слова:** Язык, афоризм, общение, ценность, ангел, сатана, прагматика, прагмалингвистика.

**Abstract.** This article discusses the linguistic units, phrases and aphorisms that demonstrate the religious and national values of the English and Uzbek peoples. Also, religious aspects specific to both languages are shown, and examples specific to both languages are cited.

**Key words:** Language, aphorism, communication, value, angel, illuminati, satan, pragmatics, pragmalinguistics.

O'zbekiston – o'zining azaliy milliy va diniy qadriyatlari bilan butun dunyoni o'ziga maftun qilgan yurt hisoblanadi. Nafaqat o'zbeklar balki inglizlar ham o'ziga xos milliy va diniy qadriyatlar egalaridirlar. O'zbeklarga xos bo'lgan salom berish, keksalarga hurmatda bo'lish, bolaparvarlik, millati va dinidan qat'iy nazar hamma insonga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lish kabi xususiyatlar asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelyapti. Islom dinida yetimlarga mehr ko'rsatish jannatiy fazilat ekanligi aytib o'tilgan. Hadisi Sharifda Muhammad alayhis-salom: "Men va yetimga kafillik qiluvchi ya'ni yetimga g'amxo'rlikni o'z zimmasiga oluvchi jannatda yonma-yon bo'lamiz" deb ikkala barmoqlarini juftlashtirib korsatadilar.[1,15]

Qo'llarimizdagi barmoqlar qanchalik bir-biriga yaqin bo'lsa, yetimni bag'riga oluvchilar ham olam sarvari bilan jannatda shunchalik yaqin turar ekan. Islom dinining asrlar mobaynida ezgulikka va ma'rifatga chorlab kelayotgan tushunchalari, insonlar qalbidan o'rin olayotgan hayotbaxsh ma'nolari hamda o'tmishning murakkab onlarida benazir xizmatda bo'lib kelayotgan tushuncha va tamoyillarni diniy

qadriyatlar deb ataymiz. Bu kabi qadriyatlar diyonat, imon-e'tiqod, vijdon, ma'naviyat kabi tushunchalar samarasidir. Bunday qadriyatlar ostida oliy maqomdagi axloq, ma'rifat va bilim turadi. Hech kimga sir emaski, qadriyat masalalari islom dinida go'yoki ibodat darajasigacha ko'tarilgan va o'z navbatida ibodat negizida qadriyatlarga amal qilish va ulani asrash yotadi. Shoir aytib o'tganidek,

“Otang bilan onang qalbi o'tar Ka'ba tavofidin,

Alar ko'nglini shod etsang bu xizmat ham ibodatdir”. [2,22]

Islomdagi beshta asosning negiziga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning bari butun insoniyat uchun qadriyat deb hisoblangan ezgulikka chorlashi ma'lum bo'ladi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, Islomda imonning eng kichik belgisi bu yo'ldan insonlarga xavf keltiradigan narsani olib tashlash hisoblanadi. Islomda savob va qadriyat tushunchalari bir-biriga chambarchas keladi. Misol qilib aytadigan bo'lsak, biror kishi savob ilinjida ochlik va tashnalikni o'z bo'yniga olsa-yu lekin yomonlikdan tiyilmasa bu chekkan mashaqqatidan hech qanday foyda bo'lmaydi. Savob uchun ulug' ziyoratlarga borsa-yu lekin tilida buzuq so'zlarni ishlatlsa, o'zini yomon ishlardan tiymasa bu ziyoratidan u insonga hech qanday savob, hech qanday manfaat bo'lmaydi. Milliy va diniy qadriyatlardan biri halollik hisoblanadi. Buyuk bobomiz Bahouddin Naqshband shunday deydilar: “Ibodat o'n qism bo'lsa, qolgan bir qismi boshqa ibodatlardir” degan gaplari halollik maqomini yuqoriga ko'taradi. Hadisi Sharifda aytib o'tilganki, “Kimki Allohga va oxirat kuniga imon keltirgan bo'lsa, mehmonini ikrom qilsin” degan hikmatli so'zlari xalqimiz orasida go'zal an'ana hisoblanib kelgan. O'z ehtiyojidan boshqalarning ehtiyojini ustun qo'yadiganlar Qur'oni karimda Hashr surasi 9-oyatida malh qilingan. Bu oyatda “Iysor qiluvchilar” maqталadi. “Iysor” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, ustun qo'yish degan ma'noni anglatadi. O'z ehtiyojidan boshqalar ehtiyojini ustun qo'yish dinimizda ustun ko'riladi hamda bu gozal islomiy qadriyatlardan biri sanaladi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bugungi kunda butun dunyo, ayniqsa, islom ham jamiyati davrning tahlikali tahdidlari bilan yuzma-yuz turibdi. Islom dinini siyosiy lashtirish va musulmon yoshlarini radikallashtirish borasidagi urinishlar bunday xatarlarni o'ta jiddiy tahlil qilish, baholash va ularga munosib javob berishni taqozo etmoqda. Shunday ekan, globallashuv jarayonlari tufayli inson faoliyatida uchrayotgan salbiy amallarning oldini olish uchun uni milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar va umuminsoniy madaniyat yutuqlari asosida tarbiyalash bugungi kun talabidir." [6,457]

Shu o'rinda ingliz xalqi ham o'z diniy va milliy qadriyatlarga ega xalq hisoblanadi. Din odamlar va jamiyatga kuchli ta'sir qiladi. Ibodat qilish, qo'shiq aytilish, raqsga tushish, qurbonliklar va g'ayritabiiy narsalarga sig'inishning boshqa shakllari turli dinlarga mansub odamlar tomonidan baraka, himoya va farovonlik so'rash uchun ishlatiladi. Shu ma'noda diniy bitiklar insonning barcha dardlariga davo bo'lib xizmat qiladi va yaxshiroq hayot uchun ko'rsatmalar beradi. Bu bitiklarning idiomatik atamalari farovonlik mohiyatini ochib beradi va insoniyat jamiyatiga ta'sir qiladi. Masalan, Avliyo Malaki "Malaki kitobi"da "na ildiz, na shox" iborasini ishlatgan. U aytganidek, “tandirday yonadigan kun keladi va barcha mag'rurlar, ha, yomonlik qiluvchilarning hammasi somon bo'ladi va bu keladigan kun ularni yoqib yuboradi”, deydi Sarvari Olam. "Ularga ildiz ham, shox ham qolmaydi". Bu iborada Rabbiiy yovuzlarga hech narsa meros bo'lmaydi va ular hech narsa meros qilib beradigan avlodlari bo'lmaydi, deb aytmoqda. Islomdagi qissalardan birida: “Agar tog' Muhammadga kelmasa, Muhammad toqqa chiqadi”, deyiladi, odamlarga hikmatni va'z qiladi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) dan bir kuni o'z ta'limotlariga dalil so'rashdi va u Safo tog'iga kelishni buyurdi.

Angliya xalqining o'ziga xos jihati shundan iboratki, ularda ehtiyotkorlik va pragmatizm tamoyillari kuchlidir. Bu jihatlar inglizlar diniy an'analari o'z tasdig'ini topadi. Ingliz aholisining tarixiy davri o'ziga xos jihatlariga ega. Inglizlar kabi fikrlash amaliy jihatdan, foydali vazifalarni bajarishda ustuvorligi bilan ajralib turadi. S.Valiyevning fikricha, “hech bir joyda mifologik tafakkur Angliyadagidek tez, keskin va to'liq yengilgan emas”. [4,36b]

O'zbekiston va Angliyada butun olam va diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi har jihatdan ibtidoiy davrning kommunikativ va tartibga solish funksiyalarining mavjudligi bilan xarakterlanadi. “Turli xil tabiat hodisalari, ya'ni shamol, yomg'ir, momoqaldiroq, chaqmoq, katta o'rmon yong'inlari, quyosh va oyning harakati, kamalak, bulutlar, tong otishi va boshqalar ibtidoiy odamlarda hayrat tuyg'usini uyg'otgan”. [5,14]

Misol qilib aytadigan bo'lsak, yozuvchi Den Braunning “Farishtalar va Shaytonlar” (“Angels and Demons”) romanini ko'rib chiqishimiz mumkin. Ushbu romanning ko'plab diniy so'zlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda pragmatic jihatdan moslashish texnikasi to'g'ri keladi chunki bu yerda ikkala xalqning diniy mentaliteti inobatga olinadi. *Angel*- bizda farishta hisoblanadi, lekin ingliz xalqi orasida ishlatiladigan *Devil*, *Satana*, *Demon* o'zbek tiliga o'girilganda *Shayton* deb ishlatiladi. Ammo Shayton ma'nosini ifodalaydigan Devil, Satana, Demon turli xil ma'nolarni ifodalaydi hamda uslubiy jihatdan boshqa boshqa ma'nolarda qo'llaniladi. *The Illuminati* – bu inglizlardagi diniy so'z hisoblanib o'zbek tilida ekvivalenti yo'q. Bu so'zning ta'rifi “O'rta asr davrlarida cherkov bilan rasmiy qaqshatqich kurash olib borgani bilan mashhur bo'lgan tashkilot”.

Shuni ta'kidlash kerakki, shunga o'xshash diniy matnlarning o'ziga xos jihatlari va pragmatik lingvistik tasnifini berishda nafaqat uning shakl hamda mazmuniga balki ma'lum bir madaniyatning diniy qadriyatlarini hamda urf-odat, an'analaridan kelib chiqib hisobga olish kerak. Yuqorida aytib o'tilgan holatlarda esa, Xristianlik va Musulmonlik o'rtasidagi farqlardan, diniy qadriyatlardan kelib chiqib uning madaniyatdagi rolini hisobga olish kerak. Shuningdek ingliz tilidan o'zbek tiliga yoxud o'zbek tilidan ingliz tiliga matnlarni tarjima qilishda ikkala madaniyatning pragmatik xususiyatiga e'tibor qaratish lozim.

Til – millat ko'zgusi, xalq madaniyatining aksidir. Xalq madaniyatining bir bo'lagi bo'lgan diniy qadriyatlar ham tilda yaqqol namoyon bo'ladi.

#### REFERENCES:

1. Shayx Muhammad Avvoma "Hadisi Sharifning o'rni". Toshkent 2018-15b
2. Mirzo Kenjabek "Ibodot" she'ri. Toshkent 2004- 22b
3. Abdullayev M.M. «Прагматические аспекты изучения политического медиадискурса» Toshkent 2021- 75b
4. Valiyev M.S. «Лингвистические основы изучения языка религиозной сферы в современной германистике» Toshkent 2022- 36b
5. Sattorov O.B. "Tarjimada pragmatika tushunchasi va tarjimashunoslikda pragmatikaning o'rni" Toshkent 2022- 14b
6. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz".-Toshkent. Ozbekiston: 2017- 457b
7. [www.lingvo-plus.ru](http://www.lingvo-plus.ru)
8. [www.lingvomaster.ru](http://www.lingvomaster.ru)

UO'K 808.5

## QIROL ARTUR HAQIDAGI AFSONALARDA INGLIZ MADANIYATINING IFODALANISHI

*N.D.Djmayeva, katta o'qituvchi, PhD, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*  
*M.Murodova, magistrant, Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Har qanday til madaniyat mahsuli bo'lib, bu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'liq. Ushbu maqolada ingliz xalqining milliy afsonasi hisoblangan "Qirol Artur" afsonalari lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan va undagi o'ziga xos xususiyatlar izohlangan.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, madaniyat, lakuna, din, mentalitet, abstrakt, sema, ekvivalentlik, diskurs.

**Аннотация.** Любой язык является продуктом культуры, и эти два понятия тесно взаимосвязаны. В этой статье обсуждаются лингвокультурологические особенности дискурса "Король Артур", который считается национальной легендой английского народа, и объясняются его особенности.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, культура, лакуна, религия, менталитет, абстракция, сема, эквивалентность, дискурс.

**Abstract.** Any language is a product of culture, and these two concepts are closely related. This article linguistically discusses the discourse of "King Arthur", considered a national legend of the English people, and explains the linguocultural peculiarities of the legend.

**Keywords:** linguoculturology, culture, lacuna, religion, mentality, abstract, sema, equivalence, discourse.

Til - madaniyat ko'zgusi, uni aks ettirish vositasidir, chunki har qanday til milliy an'analarni, adabiyotni, tarixni, iqtisodiy munosabatlarni o'zida mujassam etadi. O'z davrining yirik tilshunosi va antropologlaridan biri Edvard Sapir, «Til madaniyatni o'rganishda yo'l ko'rsatuvchi vositadir. Tilni o'rganishda nafaqat so'zlar, til bo'laklari va nutqni, balki o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyati, dunyoqarashi, turmush tarzi va urf-odatlarini ham bilish muhimdir»[1] deb ta'kidlaydi. Bu o'z navbatida, tilshunoslikning yangi sohasi, ya'ni lingvomadaniyatshunoslik evolyutsiyasining paydo bo'lishiga olib keldi. Lingvomadaniyatshunoslikni o'rganish - bu til va madaniyatga asoslangan va hali chuqur tahlil va tadqiqot qilinishi kerak bo'lgan dolzarb yo'nalish.

V.V.Vorobyovning fikricha, bugungi kunda lingvokulturologiyani muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin, chunki lingvokulturologiyaning obyekti shaxslar tomonidan yaratilgan subyektiv obrazlar, ma'no va qadriyatlar dunyosi, aniqrog'i, ularning semantik munosabatlari[2].

Uning yangiligi va to'liq o'rganilmaganligi va turli fikr va qarashlarning mavjudligi haligacha ko'p ilmiy izlanishlarni talab etadi.